



**TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN
FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH
JINOYATLARINI TERGOV QILISH FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

Majidov Jamshed Abdulla o'g'li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15624360>

Annotatsiya. Maqolada transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlarini tergov qilish borasidagi qonunchilik hujjatlarini tahrirlash, tergov harakatlarini takomillashtirish borasida muallifning fikr-mulohazalari bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: surishtiruvchi, tergovchi, hodisa sodir bo'lgan joy, ko'zdan kechirish, shaxsning huquqlari, shaxsning erkinliklari, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi, yo'l-transport hodisasi.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования законодательства, регулирующего расследование преступлений, связанных с нарушением правил безопасности дорожного движения или эксплуатации транспортных средств. Автор излагает свои мнения и предложения по улучшению следственных действий в этой сфере.

Ключевые слова: дознаватель, следователь, место происшествия, осмотр, права личности, свободы личности, безопасность дорожного движения и эксплуатации транспортных средств, дорожно-транспортное происшествие.

Abstract: This article discusses the improvement of legislation regulating the investigation of crimes related to the violation of road traffic safety rules or the operation of vehicles. The author presents opinions and suggestions for enhancing investigative procedures in this area.

Keywords: Inquirer, investigator, crime scene, inspection, individual rights, individual freedoms, road traffic and vehicle operation safety, road traffic accident.

Kundalik hayotning yangilanib, turli xildagi ijtimoiy munosabatlarning shakllanib borishi bu borada tartibga soluvchi qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlarni qabul qilinishi bilangina chegaralanib qolmay, amaldagi mavjud qonunchilikka ham ayriim o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish zaruratini keltirib chiqaradi. Hozirgi vaqtda butun jahon hamjamiyati ijtimoiy munosabatlarda eng avvalo shaxsning huquq va erkinliklari va ularning poymol qilinishini oldini olish borasida turli xildagi tajribalarni qo'llab kelmoqdalar.



Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa avvalambor shaxsning konstitutsion huquqlarini ta'minlash, shaxsga nisbatan hukumatning ta'sirini yumshatish, qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan tegishli chora ko'rishda adolatli tizim yaratishdir.

Protsessual harakatlarning sifatini oshirish, jinoyat protsessida dalillarni to'plash, ularga baho berish tizimini xorijiy tajribadan foydalangan holda qayta ko'rib chiqish, jinoyatlarni fosh etish borasidagi faoliyatni yangi bosqichga olib chiqish, sodir etilgan har bir jinoyat uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish bilan bog'liq jinoyatlar yuzasidan olib borilayotgan tergov oldi tekshiruv va dastlabki tergov hamda sud bosqichlaridagi ishlarni yuritishda yangi innovatsion yondashuvlarni qo'llash, shaxsning protsessual erkinligi, aybsizlik prezumptsiyasi kabi masalalarni yana bir bor ko'rib chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlari bo'yicha tergovni takomillashtirish nafaqat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga balki uning qatorida bo'lgan boshqa qonun normalariga ham bir qator o'zgaratirishlar kiritish lozimligini taqazo etadi.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining:

91-moddasini birinchi va uchinchi qismlarini quyidagi yangi tahrirda bayon etishni:

“91-modda. Dalillarni qayd etishda yordamchi usullar. Bayonnomaga ilovalar

Dalillarni qayd etish uchun bayonnoma tuzish bilan bir qatorda ovoz yozish, videoyozuv, kinotasvir, fotosuratga tushirish, qoliplar tayyorlash, nusxalar olish, rejalar, sxemalar, chizmalar tuzish va axborotni aks ettirishning boshqa usullari qo'llanilishi mumkin. Surishtiruvchi, tergovchi, sud dalillarni mustahkamlashning bu usullarini qo'llanishga ko'maklashish uchun mutaxassislarni jalb etishi mumkin.

Tergov yoki sud harakatining borishi va natijalari aks ettirilgan fotosuratlar, fonogrammalar, videoyozuvlar, kinotasvirlar, qoliplar, nusxalar, rejalar, sxemalar, chizmalar va boshqalar bayonnomaga ilova qilinadi. Har qaysi ilovada tergov yoki sud harakatining nomi, o'tkazilgan joyi, sanasi ko'rsatilgan izohlovchi matn bo'lishi lozim. Bu izohlovchi matnni surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida surishtiruvchi yoki tergovchi va xolislar, sudda esa, raislik qiluvchi va sud majlisi kotibi o'z imzolari bilan tasdiqlaydilar.”



137-moddasiga “Inson hayoti va salomatligi uchun xavfli bo‘lgan hududlarni, katta maydonlarni va binolarni, shuningdek aholiga turli noqulayliklar tug‘diradigan sharoitlarda ko‘zdan kechirishda mutahassis ishtirokida uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanish mumkin” jumlasini qo‘shishni;

325-moddasiga bunday hollarda xech bo‘lmaganda yaqin qarindoshlari o‘rtacha og‘irlikdagi yoki og‘ir shikast olgan vaziyatlarda faqatgina ularning jinoyat ishi qo‘zg‘atishni so‘rab murojaat qilgan arizasi bilangina jinoyat ishi qo‘zg‘atish lozimligi haqidagi normani kiritishni tavsiya sifatida taklif etish mumkin.

Yuqoridagi nazariy takliflar bilan bir qatorda quyidagi amaliy takliflarni ham inobatga olinishi joiz deb hisoblaymiz, ya‘ni hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirishdagi muammolardan eng asosiysi yomon ob-havo sharoiti tufayli nafaqat izlar va joyning holatini qayd etish, balki ba‘zan hodisa joyiga etib borish yoki tergov harakatini o‘tkazishning ilojisiz ekanligidadir. Ayniqsa deyarli qishloq aholisi yoki qishloq sharoiti degan tushuncha nutqimizni tark etayotgan, yangi kontseptsiyalarga ko‘ra barpo etilayotgan, eng so‘nggi fan-texnologiya yutuqlari joriy etilayotgan, har soniyada transport vositalari soni ortib borayotgan shaharlashgan hayotimizda YTH sodir etilgan joyni ko‘zdan kechirish o‘ta murakkab bo‘lib bormoqda.

Sir emaski, zamonaviy dunyoda texnika vositalari va ilm-fan yutuqlarining rivojlanishi muqarrar ravishda oldinga siljib bormoqda. Texnik yutuqlar hayotimizning barcha jabhalariga, shu jumladan maishiy va professional sohalariga kirib ulgurdi. Shu nuqtayi nazardan ko‘pgina mamlakatlarda huquqni muhofaza qilish faoliyatida UUALaridan foydalanish imkoniyatlari masalasi muhokama qilinmoqda. Biroq mamlakatimizda bu masala haligacha muhokama qilinmayapti. Lekin kvadrokopterlardan jamoat tartibini saqlashda, misol uchun turli ommaviy tadbirlarda, ayrim hollarda YPH inspektori tomonidan yo‘l harakati qoidalarining buzilishini aniqlash uchun foydalanib kelinmoqda. Biroq, tergov harakatlari natijalarini qayd etish uchun UUALaridan foydalanilmayapti. Ushbu yuzasidan biror normativ-huquqiy hujjat ham qabul qilinmagan. Faqatgina UUALarni qonunga xilof ravish da olib kirish, o‘tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish bo‘yicha jinoiy javobgarlik belgilangan. Lekin O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 31 avgustdagi 287-son qaroriga ilova “O‘zbekiston Respublikasining fukaro va davlat aviatsiyasida uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizomda UUALarga ta‘rif berib o‘tilgan. Unga ko‘ra, uchuvchisiz uchadigan apparatlar



deganda, bortda uchuvchisiz ishlaydigan, tashqi tomondan to'liq boshqariladigan yoki dasturlashtirilgan hamda parvozda mutlaqo avtonom bo'lgan havo vositalari tushuniladi.

Hozirgi vaqtda UUALarning modellari va turlarining xilma-xilligi shunchaki hayratlanarli. Ulardan biri kvadrokopterlardir. Kvadrokopter - bu ko'p rotorli vertolyot bo'lib, vertolyot dizayni bo'yicha qurilgan va to'rtta rotorga ega. Amaldagi kvadrokopterlar 500 metr balandlikka ko'tarilish va havoda 40 daqiqadan ko'proq zaryad olmasdan turish imkonini beruvchi texnik imkoniyatlarga ega, Parvoz masofasi 100 kmG'soat tezlikda 7 kilometrni tashkil etadi. Bu qobiliyatlar kvadrokopterlarni inson faoliyatining barcha sohalarida ajralmas yordamchiga aylantiradi.

UUALardan foydalanish eng avvalo vaqtdan yutishga, ko'zdan kechirishni amalga oshirayotgan mansabdor shaxsning e'tiboridan chetda qolgan mayda detallarni, jinoyat izlarini ham aniqlab, qayd qilib olishga misli ko'rilmagan darajada yordam beradi. Agar ko'zdan kechirilayotgan hudud kattaroq maydonni yoki insonning ko'zi bilan ko'rishi imkonsiz bo'lgan atrofni qamrab olgan bo'lsa yoxud ish uchun ahamiyatli izlar ob'ektiv va sub'ektiv ta'sirlar natijasida qisqa vaqt ichida yo'qolish ehtimoli yuqori bo'lsa, o'z vaqtida UUALardan foydalanish inson faktori bilan amalga oshirish imkonsiz vazifani bajarish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, surishtiruvchi yoki tergovchiga hodisa joyida to'g'ri harakatlanish, aynan qaysi joyni eng avval ko'zdan kechirish, ko'zdan kechirish chegaralarini to'g'ri aniqlash, tevarak-atrofdagi vaziyatni ko'rish va tahlil qilish, jinoyat sodir etilgan joydan uzoqroqda bo'lishi mumkin bo'lgan jinoyat izlarini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur bildirilgan takliflar transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzish jinoyatlari bo'yicha tergovni takomillashtirishga xizmat qiladi.